



Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-aprel


RAQAMLAR:

- 2018 yil yanvar-aprel oylarida bozor xizmatlari hajmi 1800,9 mlrd.so'mni tashkil etdi.
- Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarning o'sish sur'ati 122,6 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 666,0 ming.so'mni tashkil etdi.

Zamonaviy dunyoda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng istiqbolli va jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ko'rsatilayotgan bozor xizmatlari turlarining ro'yxati juda xima-xil bo'lib, bular savdo va transport xizmatlaridan tortib moliyaviy, sug'urta va turli xil vositachilik xizmatlaridan iborat.


Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar doirasida chora-tadbirlarning davom ettirilishi xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish imkonini bermoqda. Natijada, 2018 yil yanvar-aprel oylarida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi 1800,9 mlrd. so'mni tashkil etdi. O'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 105,2 % ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-aprel oylarida ko'rsatilgan xizmatlar tarkibi, %



Zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish, aholining ta'lim va madaniy darajasini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar doirasini kengaytirishga yordam beradi.

2018 yil yanvar-aprel oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



1	Xizmatlar – jami	8	Ta'lim sohasidagi xizmatlar
2	Aloqa xizmatlari	9	Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar
3	Moliyaviy xizmatlar	10	Ijara xizmatlari
4	Transport xizmatlari	11	Kompyuterlarni ta'mirlash xizmatlari
5	Yashash va ovqatlanish xizmatlari	12	Shaxsiy xizmatlar
6	Savdo xizmatlari	13	Me'morchilik sohasidagi xizmatlar
7	Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	14	Boshqa xizmatlar

2018 yil yanvar-aprel oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (22,6 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (17,5 %), moliyaviy xizmatlar (15,9 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (12,9 %) kabi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.


Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida eng katta ulushni savdo xizmatlari (37,4 %), transport xizmatlari (19,7 %), moliyaviy xizmatlar (9,1 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (8,0 %) egallaydi.

2018 yil yanvar-aprel oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulush, %

Savdo xizmatlari	37,4 %
Transport xizmatlari	19,7 %
Moliyaviy xizmatlar	9,1 %
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	8,0 %
Shaxsiy xizmatlar	6,7 %
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	3,6 %
Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	3,1 %
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	3,1 %
Boshqa xizmatlar	2,6 %
Ijara xizmatlari	2,2 %
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	1,9 %
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1,8 %
Me'morchilik sohasidagi xizmatlar	0,8 %

Transport xizmatlari hajmining oshishi yuklar va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarga bo'lgan talabning oshganligi hamda turizm faoliyatini jadal rivojlantirish, savdo tarmoqlarini kengaytirish, bino va inshootlarni qurish va rekonstruksiya qilish bo'yicha loyihalarni amalga oshirish jarayonlarining davom ettirilayotganligi bilan izohlanadi.

2018 yil yanvar-aprel oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 666,0 ming so'mga teng bo'ldi. O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 103,3 % ni tashkil etdi.



Namangan viloyat statistika boshqarmasi

Xizmatlar soxasi statistikasi bo'limi

Mas'ul: B.Zununov

(69) 227-85-28